



## GEORAFIYA DARSALARIDA GEOGRAFIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ollaberganova Saida Sherboy qizi

Geografiya fani o'qituvchisi saidaallaberganova26@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13924564>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-oktabr 2024 yil  
Ma'qullandi: 11-oktabr 2024 yil  
Nashr qilindi: 13-oktabr 2024 yil

### KEY WORDS

### ABSTRACT

Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy interfaol usullar yordamida tashkil etish, geografik o'yinlardam foydalangan holda yoshlarni ilm olishga qiziqtirish, shuningdek darslarda geografik o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilar ta'lim olish samaradorligini oshirishga va ularni yanada qiziqtirishga harakat qilishimiz lozim.

Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy interfaol usullar yordamida tashkil etish, geografik o'yinlardam foydalangan holda yoshlarni ilm olishga qiziqtirish, shuningdek darslarda geografik o'yinlarni qo'llash orqali o'quvchilar ta'lim olish samaradorligini oshirishga va ularni yanada qiziqtirishga harakat qilishimiz lozim.

Geografik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Dars jarayonida tashkil etuvchi fanga doir turli o'yinlar, noan'anaviy darslarning muhim shaklidir. Ular o'quvchilarning shu fanga qiziqishlarini, mehrini kuchaytiruvchi, ularning darsdagi ruhiy toliqishlarini oldini oluvchi ziyraklik va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda bilim saviyalarini yanada oshirishga undovchi muhim omil hisoblanadi.

Geografiya darslarida tashkil etish mumkin bo'lgan geografik o'yinlar har bir sinfda mavzuning mazmuniga mos kelishiga e'tibor beriladi. Geografik o'yinlar qaysi turda bo'lmasin o'quvchini mustaqil fikrlashga, aqlini peshlashga o'rgatadi. O'yin turlarining qaysinisini qay vaqtida qo'llash xususida qat'iy ko'rsatma berib bo'lmaydi, chunki geografik o'yinlar har bir darsda mavzuni mazmuniga qarab tashkil etiladi. Geografik o'yinlarni tashkil etganda o'quvchining yosh xususiyati, sa'viyasi o'yin vaqtida hisobga olinadi. Har bir yangi mavzudagi tushuncha va qonuniyatlarning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi, ularning yodida saqlanib qolishi faqatgina og'zaki yodlash ko'nikmalaridan foydalanib qolmasdan balki geografiya didaktikasining yangi ma'naviy usullaridan keng foydalilanadi. Ulardan biri tayanch konspekt tuzish, uni chuqur tahlil qila bilish usulidir. Uning mohiyati nimada? Tayanch konspekt, rasm, alohida so'zlar, hatto ayrim harflar, formula va boshqa xildagi konspekt yordamida o'tilgan mavzuni, qisqa va tushunarli holda sinf doskasida ifodalashdan iboratdir.

Geografik o'yin bolalarning bilimga qiziqishlarini faollashtirish yo'lidagi eng qulay vositadir. Bularidan eng qizig'i roli o'yinlar. Bunda tashabbus bilan bolalar o'z oldiga qo'ygan

topshiriqlarni hal qilish, qiyinchiliklarni yengish, mehnatga muhabbat, xarakteriga ta'sir qilish mumkin. Bolalar quruq, zerikarli tadbirlardan charchaydilar, o'yinga esa hamisha tayyor turadilar. Yuqori sinf o'quvchilari ommaviy o'yinlardan quyi sinf o'quvchilariga yordam beradi, savol javoblarda faollikka o'rgatadi. Geografik o'yinlar har bir darsda mavzuni mazmuniga qarab tashkil etiladi. Geografik o'yinlarni tashkil etganda o'quvchini yosh xususiyati, saviyasi, o'yin vaqtini hisobga olinadi.

Geografiya darslarini hayotga bog'lab, qiziqarli qilib tashkil etilsa, dars mavzulari har bir saboq oluvchilar ongiga chuqurroq singadi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrli, ilmli, ma'naviy yetuk, Vatanimizning yanada gullab, yashnashi uchun o'z bilim va kuchini ayamaydigan qilib tarbiyalash biz o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'z dolzarbligini yo'qotmagan pedagogik an'analarga yangicha qarash, to'plangan tajribani ijobjiy va salbiy tomonlari bilan qayta ko'rib chiqish davr talabidir. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat o'qitishi, balki bolaning qanday o'rganishini tushunishi va his qilishi, bundan tashqari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan bilim va ko'nigmalar kelajakda foydali bo'lishi va haqiqatda ishlatalishi mumkinligini taxmin qilishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limdi hoan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. -T.: Yangi asr avlod. 2006. - 76 b.
2. Qurbanniyozov R., Niyoziyev P. "Geografik o'yinlar" Toshkent "O'qituvchi"-1990 y. 80-b.
3. Qurbanniyozov R. "Geografiya o'qitish metodikasi" Urganch-2001-y. 179-b.
4. Q.Baxromov, A.Safarov. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari. Toshkent 2016-y 25-b.